



ISHBILARMONLAR NAVBATDAGI UCHRASHUV DAN NIMALAR KUTYAPTI?

Mamlakatimiz tadbirkorlari katta hayajon, ishonch va alohida quvunch bilan kutayotgan sana — 20-avgustga ham sanoqli kunlar qoldi. Ishbilarmonlar bu sanani nafaqat yurtimizda keng nishonlanayotgan “Tadbirkorlar kuni” sifatida, balki O'zbekiston tarixida o'ziga xos an'anaga aylangan va dunyo amaliyotida o'xshashi yo'q voqea — davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti sababli ham sabrsizlik bilan kutmoqda.

Bu uchrashuv Prezidentimiz bilan biznes vakillarining shunchaki muloqoti emas. O'tgan bir yil sarhisob qilinadigan, muammo va kamchiliklar tinglanib, birgalikda yechim izlanadigan, tadbirkorni qiynayotgan masalalar ochiq va boricha aytiladigan, asosiysi, ularni hal etishga doir aniq-tinchi ta'kid va tavsiyalar berilib, ishbilarmonlar uchun navbatdagi yangi imtiyozlar taqdim etiladigan kundir.

Mazkur imtiyozlar yangi qaror va farmonlar orqali amaliyotga tatbiq etilib, yil davomida tadbirkorga tayanch, ishini rivojlantirishda qo'shimcha rag'bat, yangi bozorlarga chiqishida ishonch bo'lib xizmat qilmoqda. Berilayotgan imtiyozlar tadbirkorlikning barcha yo'nalishini qamrab olishi bilan yanada ahamiyatli. Boisi, bugun qaysi sohada bo'lmasin, tadbirkor davlatning do'stiga, ishonchli sherigiga aylangan. Ishbilarmonlar ham shunga yarasha javob beryapti. Ko'plab ish o'rinlari ochib, hududlar rivoji, aholi farovonligiga hissa qo'shmoqda. Bugun vaqtinchi soliqlardan qochish emas, aksincha, shaffof ishlash, soliqlarni o'z vaqtida to'lash orqali yanada ko'proq imtiyozga ega bo'lish haqida gapiryapti. Chunki yurtimizda ana shunday tizim yaratildi. Biznes egalaringin davlatga ishonchi ortdi, yurt ravnaqiga daxldorlik hissi paydo bo'ldi.

Davlatimiz rahbari bilan ochiq muloqot oldidan o'tkazilgan qator uchrashuvlarda ham buni yaqqol ko'rish

mumkin. Tizimdagi muammolarni o'rta tashlash, takliflar bildirishda faollik yil sayin oshib boryapti. Bu ishbilarmonlarning tizimga, bildirayotgan takliflari qog'ozlarda qolib ketmasligiga ishonganidan dalolat. Bu ishonch tadbirkorlarni nafaqat shaxsiy manfaatlari, balki sohadagi har bir kishiga naf keltiradigan, mamlakat iqtisodiy rivojiga turkii beradigan masalalarni bildirishga undamoqda.

Savdo-sanoat palatasi ma'lumotiga ko'ra, ochiq muloqotga tayyorgarlik jarayonida 14 mingdan ortiq murojaat qabul qilingan (joriy yil 5-avgustdagi holat).

Davlatimiz rahbarining o'tgan yili Qoraqalpog'istonda tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ham yangiliklarga, kutilmagan taklif va tashabbuslarga boy bo'lgani, e'lon qilingan qo'shimcha imtiyozlar biznes egalari qanchalik quvontirgan hamon yodimizda. O'sha ishbilarmonlarning aksariyati berilgan imtiyozlardan unumli foydalanib, bugun faoliyatini yanada kengaytirgan, qo'shimcha ish o'rinlari ochib, o'z yo'nalishida ishlash chiqarish quvvatlari oshishiga hissa qo'shib kelyapti.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi oldidan bir necha ishbilarmon bilan suhbatlashib, berilgan imtiyozlardan qanchalik foydalanayotgani, bu yilgi ochiq muloqotdan nimalar kutayotgani hamda qanday takliflarni ilgari surayotgani bilan qiziqdik.

KADRLAR BAZASI KERAK

— Bundan o'n yillar oldin O'zbekistonda zamonaviy AT (axborot texnologiyalari) yo'nalishidagi kasblar haqida ko'pchilikda deyarli tasavvur bo'lmagan. Shu haqda gap ketsa, aksariyat odamlar asosan kompyuterchi yoki dasturchini tushungan. Bugun esa aynan AT yo'nalishiga qiziqadigan va buni zamonaviy kasblardan biri sifatida tanlayotgan yoshlarning sanog'i yo'q. Hatto kichik bolalar ham zamonaviy texnologiyalarga shunchaki vaqt o'tkazish emas, balki ishlash, daromad topish vositasi sifatida qarayapti. Maktab yoshidayoq zamonaviy texnologiyalar orqali daromad qilayotgan o'nlab yigit-qizni bilamiz, tanishlarimizdan ular haqida eshityapmiz.

Gap shundaki, O'zbekistonda 2017-yildan keyin barcha soha qatori AT yo'nalishini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratila boshladi. Shu sohada ishlash uchun shart-sharoit, imkoniyatlar yaratilib, birin-ketin imtiyozlar berildi. Ayni yo'nalishda tadbirkorlik qilayotgan inson sifatida bugun yurtimizda AT sohasida berilgan imkoniyatlar dunyoning boshqa hech qaysi davlatida yo'q deb ayta olaman. Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan subsidiyalari ko'lami nihoyatda keng. Zamonaviy texnologiyalarni o'rganaman desa bo'ldi,



Sherzod IBRAGIMOV,
“MAAB Innovation” AT kompaniyasi hamda
“MAAB Academy” akademiyasi rahbari:

noutbukini ham davlat olib beryapti, o'quv kursini ham, sertifikat to'lovlarini ham davlat to'lab beryapti.

Ana shunday imkoniyatlarni ko'rib, 2019-yilda O'zbekiston bozoriga kirishga qaror qildik. Ungacha AQSHda kompaniya

ochib, turli loyihalarda ishlash kelganmiz. Asosiy ishchi kuchini Hindistondan olardik. 2019-yili O'zbekistonda korxona ochgach, o'zimizning yoshlarni o'qitib, ish bilan ta'minlay boshladik.

Asosiy faoliyatimiz axborot texnologiyalari sohasining ma'lumotlar bazasi yo'nalishiga yo'naltirilgan. Ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanamiz. Buyurtmachilarimiz amerikalik hamkorlar bo'lib, o'n yildan ortiq vaqtdan beri shu bozorda ishlash kelyapmiz. 2019-yildan bugungacha 3 million dollarlardan ko'proq AT xizmatlarini AQSHga eksport qildik. Birgina 2024-yilning o'zida eksportimiz qiymati 1 million dollardan oshdi.

Loyihalarni o'zimizning yigit-qizlar bajaradi. Kompaniyamizda 150 dan ortiq yosh ishlaydi, ularning aksariyati talabalar. Axborot texnologiyalari sohasining qulayliklaridan biri shuki, loyihalarni uydin chiqmagan holda bajarish imkoniyati bor. Buning uchun zamonaviy texnologiyalar bo'lsa, bas. Yoshlar esa AT sohasini o'qib-o'rganish barobarida til bilishi ham zarur. Chunki bunday xizmatning asosiy xaridori xorijliklar bo'lib, ular bilan chet tilida muloqot qilinadi.

Axborot texnologiyalari mutaxassisi bo'lish uchun zamonaviy qurilmalarni to'laonli bilish, qo'shimcha o'qish, zarur bilimlarni egallash lozim. Shu bois, 2024-yilda “MAAB” akademiyasini ochdik. Bu yerda bir yilda 2000 dan ortiq o'quvchi tayyorlaymiz. Bugungacha akademiyani tamomlagan mingdan ziyod yosh ish bilan ta'minlandi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasi rivojlanishi biz kabi tadbirkorlarning ko'payishiga ham yo'l ochdi. Hozir bu eng daromadli yo'nalishlardan. Umuman, bugun ishbilarmonlikning barcha yo'nalishidan

O'ZIMIZ O'YLAMAGAN YANGILIKLARNI KUTYAPMIZ

Nargiza BEKMURODOVA,
Xorazm viloyatidagi “Artatex” MCHJ rahbari:



— Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv sanasini tadbirkorning yangi yilidek kutamiz. Boisi, aynan 20-avgustdan boshlab navbatdagi bir yil uchun o'zimizga yangi vazifalar belgilab olamiz. Bizga beriladigan imkoniyat, imtiyozlardan kelib chiqib, bir yillik reja tuzamiz. O'tgan vaqtinchi sarhisob qilib, endi erishmoqchi bo'lgan vazifalarimizni chalamaymiz. Imtiyozlardan

ruhlanib, marrani yuqori olamiz. Bu yilgi ochiq muloqotdan ham umidimiz katta. O'zimiz ham o'ylamagan yangiliklarni kutaymiz. Odatda shunday bo'ladi, xayolimizga keltirmagan, ammo bizni qiyinlayotgan masalalarga yechim beriladi. Har yili davlatimiz rahbari ichimizdagi fikrlar, takliflar, muammolarni o'zimizdan ham ko'ra ko'proq bilib, xuddi oramizda yurgandek, so'rganlarimizni ortida milliy mahsulotlarimizni jahon bozoriga kengroq olib chiqish maqsadi ham bor. Ayniqsa, to'qimachilik sohasiga berilayotgan imtiyozlar samarasi keyingi yillarda ko'zga yaqqol tashlanayapti. Yurtimizda tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlash chiqarish sanoati bu qadar rivojlanishini bundan o'n yillar oldin o'zimiz ham tasavvur qilmaganmiz. Bugun sohadagi tadbirkorlarning soni, ular ishlash chiqarayotgan mahsulotlar sifatini ko'rib, hayratga tushmaslikning iloji yo'q. Ular haqiqatan ham o'zimizning brend, o'zimizning mahsulot.

O'tgan yili davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvida yana ko'plab imtiyozlar berildi. Amaliyotda ularidan samarali foydalanib kelyapmiz. Ayniqsa, QQSdan hosil bo'lgan soliq summasini qisqarta qaytarib olish imkoniyati katta qulaylik yaratyapti. Korxonaning ortgan mablag'ini yangi ish o'rinlari ochish, mahsulot turini ko'paytirish, dastgohlar sotib olishga yo'naltiryapmiz.

Bu yil ham uchrashuvdan ana shunday yangiliklar kutaymiz. Takliflarning aksariyatini

tadbirkorlar bildirayotgani masalalarning aniq yechimiga xizmat qilmoqda. O'zim ham har yili imkoniyatdan foydalanib, bir nechta taklifni ilgari suraman. Bugungacha ularning barchasi amaliyotda qo'llanyapti. Joriy yilda 4 ta taklif bildirdim. Shulardan biri qo'shimcha qiymat solig'idan hosil bo'lgan soliq summasini qaytarib olish bilan bog'liq. Gap shundaki, korxonamiz tadbirkorlarning barqarorlik reytingida yuqori “AAA” toifaga kirgani bois, QQSdan hosil bo'lgan mablag' har oy avtomatik tarzda hisobraqamimizga tushiriladi. Bu juda katta qulaylik, albatta. Ammo taklifim shundan iboratki, hosil bo'lgan ana shu summa korxona hisobiga avtomatik qaytarib olinmay, ixtiyoriy ravishda kelgusidagi boshqa soliq to'lovlariga oldindan o'tkazib qo'yilsa, nur ustiga nur bo'lardi. Shu tarzda soliqni oldindan to'lagan tadbirkorlarga yana 5 ball berilsa, bu ularga qo'shimcha imkoniyat, rag'bat bo'lardi.

Kadrlar masalasi ham biz uchun dolzarb. Masalan, O'zbekiston paxtasiga xorijda juda katta qiziqish bor, ammo bizda professional darajadagi sotuv menejerlari, boshqaruvchilar yo'q. Shu bois, korxonalaridagi rahbar kadrlar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etilib, dars o'tishga ham mahalliy, ham xorijlik mutaxassislar jalb qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“

BIRLASHIB, BIR KUCHGA AYLANYAPMIZ

— Ko'plar qatori men ham davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini qizg'in kutayman. Bu haqda gapirsam, o'z gacha ruhlanaman, quvvatga to'laman. Chunki bu uchrashuv o'z ustida ishlash uchun, mehnat qilayotgan, olinasi boqish bilan birga boshqalarni ham ish bilan ta'minlayotgan tadbirkorlarga berilayotgan katta e'tibor, samimiyat belgisi. Bu bizga yanada ko'p ishonch, kuch-quvvat beradi. Shu bilan birga, uchrashuvdan kutayotganlarimiz ham bisyor.

Tadbirkorlar oilasida ulg'ayganim uchun sohaga ancha erta kirib kelganman. Bu yo'lda qiyinchiliklarni bosib o'tganim bois, beixtiyor hozirgi kun bilan solishtiraman. Oldinlari uncha-

muncha odam tadbirkorlik qilishga jazm etolmasdi. Nazorat o'ta kuchli, korruptsiya yuqori edi. Hatto korxona tashqarisida kichik bo'lsa-da, xatoga yo'l qo'yilishini poylab o'tiradiganlar bo'lardi. Lekin o'sha xatarlarni bilib turib ishlardik, boshqa ilojimiz yo'q edi. Korxonamizga ogohlantirishsiz, kutilmaganda tekshiruvchilar bostirib kelardi. Ishlab chiqarish jarayonini to'xtatib, hamma joyni muhrlab, hisobot va hujjatlarimizni rasmiylashtirmay olib qo'yardi. Shuning ortidan yetti oylik homilam bilan kun bo'yi tergovda o'tirgan paytlarim bilan kun bo'yi

To'g'ri, u vaqtlarda tadbirkor uchun bozor deyarli bo'sh edi, raqobat bo'lmagan hisobi. Ammo sifat ham shunga yarasha, xaridor uchun tanlov imkoniyati kam edi. Bunday sharoitda tadbirkor o'z ustida deyarli ishlamasdi. Hozir esa bozor erkin, raqobat kuchli, har sohada tadbirkorlar yetarlilik. Bu mamlakatimizda erkin va qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilganining isboti. Sog'lom raqobat esa biznes egalardan ko'proq izlanish, yangilik yaratish, harakat va kuchli mas'uliyatni talab qiladi. Asosiysi, buning uchun hech qanday to'siq yo'q. Hozir — tadbirkorlar uchun yayrab ishladyigan davr. Davlat ishbilarmonlarni qo'llab-quvvatlaydigan ishonchli hamkor vazifasini faol bajarmog'da. Tadbirkor rivojlanishi uchun amalda barcha zarur sharoit yaratib berilyapti.

Ta'lim sohasida ham raqobat katta. Ammo taklifga yarasha talab ham bor. Bu yo'nalishdagi tadbirkorligimni boshlaganimga 12 yildan oshdi. Ta'limdagi faoliyatim 1 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarni qamrab oladi. “Nova school”



Zeboxon MO'MINOVA,
Toshkent shahridagi “Nova school” nodavlat ta'lim muassasasi rahbari:

nodavlat ta'lim muassasasi 2013-yilda bolalarni erta rivojlantirish markazi sifatida faoliyat boshlagan. 2015-yilda ushbu ta'lim muassasasi asosida ikki tili tizimga ega bolalar bog'chasi tashkil etildi. 2017-yilda esa ishimizni kengaytirib, xususiy maktab ochishga muvaffaq bo'ldik.

Faoliyatim orqali xalqaro ta'lim tizimi va Britaniya ta'lim dasturining elementlarini milliy dasturga integratsiya qilish orqali bolalar ta'limini rivojlantirish, ularga sifatli bilim berish, chet tillarni samarali o'qitish, kelajak avlodni zamonaviy dunyoga kuchli intellektga ega, mukammal shaxs sifatida kamolga yetkazishni maqsad qilganman. Xorij ta'lim dasturini milliy dasturga moslashtirgan holda ishlayapmiz.

yaxshi daromad topish mumkin. Chunki buning uchun barcha sharoit yaratilgan. Avvalo, ishlash uchun erkin muhit shakllantirilgan. Bu erkinlikni avvaldan biznes bilan shug'ullangan va soha rivojiga to'siq bo'lgan juda ko'p muammolarni ko'rgan kishilar yaxshi his qiladi.

Otam biznes sohasida ishlagan boisi, “Soliqchilar tekshirib kelibdi, jarima solibdi, korxonani yopib qo'yibdi” degan gaplarni ko'p eshitardik. To'g'risi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga cho'chirdim. Lekin 2017-yildan keyin barchasi o'zgarib boshladi. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlarga qaratadigan “Ikkitagina ish o'rmini yaratgan tadbirkorni boshimga ko'tarishga tayyorman”, degani menga katta turki berdi. O'timizda Prezidentimiz turibdi degan ishonch qo'rqumini harakatga, imkoniyatga aylantirdi. Shundan so'ng yurtimizda axborot texnologiyalari yo'nalishida biznes boshlashga qaror qildim.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini har yili katta hayajon bilan kutamiz. Uchrashuvda faoliyatimizni yanada kengaytirishga yordam beradigan katta imtiyoz, yangiliklarni berilishiga o'rganib qolganmiz. Ochig'i, Prezidentimizning biznes egalari bilan uchrashib, ularning muammolariga yechim berishi dunyoning hech bir davlati amaliyotida bo'lmasa kerak.

Takliflarni ham o'zimiz beryapmiz, muammolarni ochiq aytapmiz. Hozir bizdagi asosiy masalalardan biri — kadrlar yetishmasligi. Tadbirkorlarimiz ko'proq ish o'rni yaratgani sari kadrlarga talab oshib boraveradi. Kompaniyamiz misolida aytсам, 2019-yilda chet tilini biladigan iqtidorli yigit-qizlarni bemalol topib, o'qitib, o'zimizga ishga qabul qilayotgan edik. Hozir bu nisbatan qiyinlashgan. Chunki biznikii kabi kompaniyalar ham, ish o'rinlari ham ko'payib, kadrlarga talab oshgan. Mutaxassislarning tanlov imkoniyati kengaygan.

Lekin chekka hududlarda iqtidorli yoshlar juda ko'p. Bunga o'zimiz guvoh bo'lyapmiz. Faqat ularni topish, sinovdan o'tkazib, tanlab olishga juda ko'p vaqtimiz ketadi. Shu bois, yurtimiz bo'ylab iqtidorli yoshlar reytingini shakllantirib, baza qilish taklifini bermoqchiman. Ana shu baza orqali tadbirkorlarda kadrlarni tanlab olish imkoniyati oshadi. Tizim shakllantirilsa, tadbirkorlarning vaqti yanada tejalib, kadrlar topish muammosi yechiladi. Undan ortgan vaqtini esa kompaniyamizni yanada rivojlantirish, eksportni oshirishga yo'naltiramiz.

Xizmatlarimizga mahalliy aholidan tashqari xorijliklar, asosan, qo'shni davlatlardan ham talab bor. Chunki ta'lim dasturlari ingliz va rus tilida olib boriladi.

Hozir ta'lim yo'nalishida tadbirkorlarga ko'plab imtiyozlar bor. O'zim ham ularning aksariyatidan foydalanib kelyapman. Yangi xususiy maktab binosini qurishda imtiyozli kredit oldim. Davlat tadbirkorni qo'llab-quvvatlayotgan ekan, biz ham shunga yarasha mas'uliyatni his qilishimiz kerak. Ta'lim sohasi nafaqat tadbirkorlik va daromad manbayi, balki o'ta og'ir va murakkab jarayondir. Har bir bolaga bilim berish — katta mas'uliyat. Shu bois, bu yo'nalishdagi tadbirkorlikning yuki og'irroq.

Davlatimiz rahbari bilan ochiq muloqot oldidan ishsizlikni kamaytirish va kadrlarni qisqara muddatda tayyorlash bo'yicha “xodimlar fabrikasi” tashkil qilish bo'yicha bir qancha takliflar bildirdim. Ish o'rinlari ortgan sari takliflar yetishmovchiligi oshib boryapti. Yuni tezkor hal etish choralarini bo'yicha amaliyotda kichik tajriba o'tkazdik. Natijasini ko'rgach, taklif sifatida kiritdim. O'ylaymanki, takliflarimiz asosida samarali yechim beriladi.

Umuman, bugun yurtimizdagi tadbirkorlik muhitiga havas qilsa arziydi. Bir yoqadan bosh chiqarish degan tushunchani hozir teran his qilyapman. Bugun nafaqat davlat tadbirkorning, balki tadbirkor tadbirkorning do'stiga aylandi. Chempion tadbirkorlarimiz yoshlarga namuna ko'rsatyapti.

To'g'ri, tadbirkorlar uchun bozorda raqobat kuchayib boryapti. Lekin muhit sog'lom bo'lar ekan, raqobat ham shaffof bo'ladi. Birgalikda jahon bozoriga chiqaymiz. O'ylaymanki, kelajakda juda katta yutuqlarga erishamiz. Buning uchun davlatimiz rahbari bor mehri, kuchini ayamayapti — buni barchamiz his qilyapmiz.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

O'ZBEK XALQI EZGU FAZILATLARINING YUKSAK NAMUNASI

O'tgan yili falastinlik yarador 100 ayol va bola reabilitatsiya uchun O'zbekistonga olib kelingan edi. Shu davrda ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatilib, sog'lomlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratildi.

Prezidentimizning 2025-yil 14-avgustdagi “O'zbekistondagi bir guruh falastinlik fuqarolarga davlat g'amxo'rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni esa falastinlik fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Unda mehmonlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, jamiyatga integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, sog'lig'ini yanada mustahkamlash, bandligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Mazkur yo'nalishdagi xayrli ishlar xalqimizning bag'rikenglik, ezigulik, insonparvarlik kabi milliy qadriyatlari ko'zgusi sifatida keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston tajribasi dunyoga andoza sifatida baholanmoqda



— Insonparvarlik, tinchliksevarlik, yiqilganni suyash — xalqimizning azaliy qadriyati. Hozirgi sinovli kunlarda otabolarimizdan meros bu ezgu an'analar hamon barhayot ekani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Prezidentimizning falastinlik fuqarolarga davlat g'amxo'rligi, mehr-shafqat tamoyillari asosida ko'mak berish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha farmoni bunga yaqqol misol bo'ldi.

Bu xayrli ishlar inson qadrini ulug'lashga yo'g'rilgan siyosat qog'ozda emas, amalda yuksak samara berayotganining yana bir ifodasidir. Zero, bugungi notinch dunyoda katta-katta minbarlarda dunyoda tinchlik, adolat o'rnatish bo'yicha har qancha chaqiriqlar yangramasin, afsuski, buning amaliy natijasi deyarli sezilmayapti, o'zaro nizo va urushlarning oxiri ko'rinmayapti. Eng achinarlisi, bunday ziddiyatlarning og'ir asoratidan eng o'jiz qatlam — ayollar va bolalar azob-uqubat tortayotgani insonning yuragini o'rtaydi.

Shunday vaziyatda Prezidentimiz tinchlik o'rnatish, taraqqiyotga erishish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu borada faqat chaqiriqlar bilan cheklanmay, muhim amaliy ishlar ham qilinayotgani dunyo hamjamiyatining qizg'in e'tirofiga sazovor bo'layotir.

Hayotning og'ir sinovlari qarshida mehr-e'tibor, ko'makka muhtoj insonlarga yordam qo'lini cho'zish borasidagi bunday ishlar birinchisi emas. So'nggi yillarda bir necha bosqichli “Mehri” operatsiyasi orqali bir qancha ayollar va bolalar urush o'choqlaridan yurtimizga olib kelinib, hayotga qaytarildi. Hozir ularning barchasi tinch, osuda yashamoqda, yoshlar tengdoshlari qatori maktabga boryapti, kattaroqlari oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish arafasida. Ayollar esa ishli bo'lib, jamiyatga to'la qo'shilib ketdi. Ayni shu tajriba falastinliklarni ham hayotga integratsiya qilishda qo'l kelishi tabiiy.

Bu savobli ishlar har birimizga ulkan faxr-iftixor baxsh etadi. Ana shunday ezgu sa'y-harakatlarimiz bardavom bo'lishi uchun barchamiz, jumladan, ko'pni ko'rgan, hayotning achchiq-chuchugini tatib, katta tajriba orttirgan nuroniyar islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib qilishi lozim. Zero, dunyoda tinchlik o'rnatishda donishmandlik, tafakkur va yuksak ma'naviyatning o'rni cheksiz.

Rustam KALONOV,
“Nuroni” jamg'armasi Toshkent shahri kengashi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi



— Falastindan yurtimizga olib kelingan fuqarolarning aksariyati turli jarohatli sababli ayanchli ahvolda edi. Ularga ilk kunlardan oq zamonaviy tibbiy-diagnostika yordami ko'rsatilib, sog'lig'ini tiklashi uchun barcha zarur sharoit yaratildi. Endi bu jarayon uzluksiz davom etadi. Mehmonlar yashash

Quva tumanidagi “Pastki Xo'jahidan” mahalla fuqarolar yig'iniyadagi 82-oilaviy poliklinika 12 ming 500 kishiga xizmat ko'rsatadi. O'tgan asrning 90-yillarida hashar asosida qurilgan birlamchi tibbiyot bo'g'ini yillar davomida e'tibordan chetda qolgandi. Qishda sovuq, yozda issiq bo'lgan tor, pastqam xonalarda shifokor va bemorlar uchun oddiy shart-sharoit yetishmasdi. Imkon topgan bemorlar tuman, viloyat markazidagi shifoxonalarga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

Endi bu yerda ish tizimi, holat o'zgardi, ovoragarchiliklar barham topmoqda. “Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar” dasturi ijrosi doirasida poliklinikada keng ko'lamli qurilish-bunyodkorlik ishlari bajarildi. Aholiga namunali tibbiy xizmat ko'rsatish, muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shifokor va hamshiralarni malakasini oshirish, xodimlarni munosib rag'batlantirish, kasallikni erta aniqlash bilan bog'liq zarur sharoit yaratildi.

— Chekka qishloqdagi oilaviy poliklinikada bu qadar katta o'zgarishlar qilinmagan edi, — deydi poliklinika mudiri Ma'rufjon Egaliev. — Ta'mirlash jarayonida muolaja xonalari kengaytirildi, qo'shimcha binolar qurildi. Bemorlar uchun kutish joylari, ona va bola xonasini tayyorlash, imkoniyati cheklanganlar harakatini qulaylashtirish, issiq va sovuq suv bilan ta'minlash, sanitariya-gigiyena holatlarini yaxshilash bilan bog'liq ishlar bajarildi. Barcha xizmatlar raqamlashtirilmoqda. Elektron tibbiy karta,

Har bir mehmonning ehtiyoji o'rganilib, yordam ko'rsatiladi



24 fuqaroga nogironlik belgilanishi, 12 bola maktabgacha, 32 bola maktab ta'limiga qamrab olinishi kerak. Ularni jamiyatga moslashtirish ham doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Ushbu ishlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida respublika komissiyasi tuzildi. Komissiyaning ishchi organi esa Ijtimoiy himoya milliy agentligi etib belgilandi.

Agentligimiz mutaxassislari har bir mehmonning ehtiyojini o'rganib, baholaydi. Shundan kelib chiqib, hamkor tashkilotlar bilan birga zarur xizmatlar ko'rsatiladi. Xususan, falastinlik mehmonlarga zarur ish stajiga ega bo'lmagan kexsa fuqarolarga beriladigan nafaqa tayinlanadi. Har bir mehnat yoshidagi mehmon (I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar bundan mustasno) uchun har oyda minimal iste'mol xarajati miqdorida yashash nafaqasi joriy etiladi. Mehmonlarning har bir oilasiga yashash manzili bo'yicha uy-joyning ijara xarajati qoplab beriladi. Farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa hamda dafn etish uchun nafaqa to'lovi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan miqdorda to'lanadi.

Ularni hayotga integratsiya qilish ham muhim yo'nalishdir. Bu borada mehmonlarning oila a'zolariga shaxsiy hamrohlik qilish va individual ko'mak ko'rsatish, shuningdek, ularning ehtiyojlari va individual talablarini ro'yobga chiqarish maqsadida bittadan mahalladagi ijtimoiy xodim birlashtiriladi.

Sirojiddin ABDULLAYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
direktori o'rinbosari

Mehmonlar malakali tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi

manzili bo'yicha oilaviy, tuman yoki shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalariga hisobga qo'yiladi.

Har bir mehmonning kasallik tashxisiga qarab nogironlik darajasini belgilash va boshqa zarur ko'mak berish chorasi ko'riladi. Patronaj tizimiga qamrab olish, ambulator va tez tibbiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Agar zarurat tug'ilsa, o'rnatilgan tartibda ixtisoslashgan markazda yo'llanma orqali davolanish imkoniga ega bo'ladi.

Qisqasi, malakali tibbiy yordamdan foydalanish bo'yicha xalqimizga qanday xizmat ko'rsatilsa, falastinlik mehmonlar

ham shu imkoniyatlardan to'liq foydalanadi. Muqaddas kitoblarmizda yaxshilikning mukofoti yaxshilik ekani bitilgan. Manbalarning yana birida kimki bir insondan dunyo g'inchiliklarini aritsa, bu amal yaxshilik qiluvchiga ham ko'plab ne'matlar yetkazishi qayd etilgan. Prezidentimizning farmoni ana shunday ezgu amallarga yo'g'rilgani bilan ahamiyatli.

Elmira BOSITXONOVA,
sog'liqni saqlash vaziri
o'rinbosari

“Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar”

DAVOLANISH UCHUN UZOQQA BORISHGA ZARURAT QOLMADI

telemeditina va onlayn navbatga yozilish kabi xizmatlar yo'lga qo'yildi. Bu bemorlarga ortiqcha vaqt yo'qotmay, belgilangan va o'zi uchun qulay bo'lgan paytda tibbiy ko'riktan o'tish, muolaja olish imkoniyatini beradi.

Qishloq oilaviy poliklinikasiga yaqin hududda tuman yuqumli kasalliklar shifoxonasi joylashgan. 1957-yilda qurilgan va uzoq yillar ta'mirlal holatda bo'lgan shifoxona endi zamonaviy ko'rinishda foydalanishga topshirildi. 60 o'ranga mo'ljallangan tibbiyot muassasasi sanitariya



Otaboy MADAMINOV,
Gurlan tumani nuroniyar
jamoatchilik kengashi faoli

Prezidentimiz serqirra faoliyati davomida kexsa avlod vakillari, yo'ni nuroniyarlarga muttasil g'amxo'rlik qilmoqda. Shu tufayli otaxonu onaxonlarning kundalik hayoti, turmush tarzi va ijtimoiy faolligi har doim davlat siyosati va jamoatchilik diqqati markazida turibdi.

Aynan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Nuroni” jamg'armasi faoliyati yanada takomillashtirildi. Bu jamg'arma nafaqat moddiy yordam ko'rsatish, balki nuroniyar hayotini mazmunli o'tkazish, boy tajribasini yoshlar tarbiyasiga yo'naltirish, avlodlar orasida ma'naviy ko'prik vazifasini bajarishda beqiyos ahamiyatga ega.

Zero, nuroniyar elning duosi, millatning tayanchi va davlatning ma'naviy ustuni. Yurtimizdagi bunday imkoniyatlar, avvalo, xalqimizda kexsa avlodga hurmat, qadriyatlarga sadoqat va birdamlik tuyg'usini yanada kuchaytiradi. Bu esa yangi O'zbekistonda barcha avlod vakillarining bir maqsad yo'lida birlashishi, tinch-totuv yashashga xizmat qiladi.

Jamg'arma “Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul” tamoyilini hayotga tatbiq etdi. Bu g'oya, avvalo, yoshlarni aql-zakovatli, ilm-ma'rifatli, vatandash va komil inson qilib tarbiyalash yo'lidadig keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim qismidir. Mazkur tamoyil doirasida nuroniyarimiz yoshlar hayotiga daxldorlik bilan yondashib, ularning ta'lim olishi, ma'naviyati bo'yishi va maqsadlariga erishishida yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda.

Gurlan tumani nuroniyar jamoatchilik kengashi a'zolari o'quv maskanlari, mahallalar, mehnat jamoalari va turli tashkilotlarda muntazam ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazmoqda. Ayniqsa, “Uch avlod” uchrashuvi yoshlar qalbidagi milliy o'zlik, ezgu orzular va otobobolarning ma'naviy merosiga hurmat tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugunga qadar kengash a'zolari o'tkazgan yuzdan ortiq “Uch avlod” muloqotida hayotiy tajriba, milliy an'ana, odob-axloq qoidalari, kitobxonlik madaniyati, Vatanga muhabbat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar yoshlar qalbiga singdirib borildi. Mazkur uchrashuvlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish barobarida oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlamoqda.

Mana shu ezgu maqsad yo'lida kengash a'zolari kompleks tarbiya va qo'llab-quvvatlash platformasini ishlab chiqdi. Mazkur platforma quvidagi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Birinchisi — ilm va ma'rifatga yo'naltirish. “Najot ilmdadir, najot bilimdadir va Uchinchi Renessans yoshlar qo'lidadir” degan chuqur ma'noli ibora shior qilib olindi. Bu g'oya yoshlarning bilimga intilishini kuchaytiradi, zamonaviy va klassik ilm manbalariga jalb etadi.

Ikkinchisi — kasb-hunarga yo'naltirish. Oliy ta'limda o'qish imkoniyati cheklangan yoshlarga qiziqishi va iqtidoriga mos turli kasb-hunarlarini o'rgatish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda nuroniyar maslahatchi va yo'lbo'shchi sifatida yoshlarni tajribali ustozlarga birlashtirmoqda.

Uchinchisi — tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlik

madaniyatini rivojlantirish, ularni mustaqil biznes loyihalariga jalb qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z o'rmini topishiga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

To'rtinchisi — odob-axloq va ma'naviy tarbiya. Yoshlar halol, pok, intizomli bo'lib voyaga yetishi uchun ma'naviy-ma'rifiy subhatlar, kitobxonlik va diniy-ma'naviy tarbiya tadbirlari yo'lga qo'yilgan.

Beshinchisi — jismoniy tarbiya va sport. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etish, badantariya va sport bilan muntazam shug'ullanish uchun zarur shart-sharoit yaratish, sport inshootlaridan keng foydalanishiga ko'maklashish chorasi ko'rilmoqda.

ta'minlashga intilayotir. Bu hamkorlik davlat idoralari, mahalla tizimi va jamiyatning ma'naviy ustuni bo'lgan nuroniyar o'rtasidagi samarali uyg'unlik namunasidir.

Bugun tumanimizda 16 ming 830 pensioner istiqomat qilmoqda. Safimizda 1 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi hamda front ortida mehnat qilgan 5 nafar yurtudoshimiz ham bor. Yolg'iz yashovchi va o'ziga o'zi xizmat ko'rsatuvchi keksalar 20 nafar.

Nuroniyarlarning sog'lig'i va ma'naviy holati doimo e'tibor markazida. Ularni ichki turizm va dam olish maskanlariga jalb etish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, shu yilning



Oldinchisi — mehnat migratsiyasiga tay-yorlarlik. Chet elda ishlashni maqsad qilgan yoshlar avval chuqur tibbiy ko'riktan o'tkaziladi. O'zi boradigan mamlakat qonun-qoidalari, xalqning urf-odatlari va milliy qadriyatlari to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Mahalliy aholi va huquq-tartibot organlari bilan hech qanday nizoga kirishmaslikka doir zarur tushuncha beriladi.



Yettinchisi — xavfli oqimlardan himoya qilish. Yoshlar muhojirlik davrida har xil ekstremistik va terroristik oqimlarga qo'shilishning oqibatlaridan ogohlantiriladi. Shuningdek, belgilangan hududdan besabab chiqmaslik, qonuniy tartiblariga qat'iy rioya qilish zarurligi uqtiriladi.

Ushbu kompleks platforma — yoshlar uchun hayotiy yo'l xaritasi, nuroniyar uchun esa ma'naviy mas'uliyat dasturi sifatida “Yoshlar — yangi O'zbekistondan paydevori” tamoyilining amaldagi yorqin ifodasidir.

Tuman hokimligi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi nuroniyar bilan yaqin hamkorlikda ishlab, har bir tadbirming amaliy natija berishini

o'tgan davrida 368 yurtudoshimiz Buxoro va Samarqand shaharlariga ziyorat bordi, 604 nafari so'lim hududlarda dam oldi. Umuman, 3080 nuroniy turli yo'nalishda yurtimiz bo'ylab sayohat qildi. Shu yil 1-avgustiga qadar 326 nuroniy sihatgohlarda davolanib, sog'lig'ini tikladi.

Bu kabi ishlar kexsa avlod vakillariga yaratib berilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning amaldagi natijasidir. Nuroniyarlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va samaradorligi yildan yilga yaxshilanmoqda. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan siyosatning yorqin ifodasidir.

Bugun tumanimizdagi 10 ta tibbiyot muassasasida nuroniyarlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Jumladan, 1 ta tuman tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasi, 1 ta tuman ko'p tarmoqli markaziy, 6 ta oilaviy poliklinika, 3 ta oilaviy shifokorlik punkti zamonaviy tibbiy uskuna va malakali tibbiyot xodimlari yordamida samarali xizmat ko'rsatmoqda. Bu esa nuroniyarimizga har tomonlama tibbiy yordam ko'rsatish va aniqlangan xastaliklarni sifati davolash imkonini bermokda.

Aholi, jumladan, nuroniyar o'rtasida muntazam tibbiy profilaktik ko'riklar o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu tashabbus yoshu qarini aniq tashxis asosida davolash, kasalliklarning barvaqt oldini olish imkoniyatini yanada kengaytirayotir. 2024-yilda viloyat tibbiyot muassasalarida bepul davolanish uchun 548 bemor order bilan ta'minlandi. Shuningdek, tuman markaziy shifoxonasi bo'limlarida 20 ming 332 bemor davolandi. Shundan 2632 nafarida jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Nuroniyarlarning sog'lig'ini muhofaza qilish masalasi Prezidentimizning qator qaror va farmonlarida o'z ifodasini topgan. O'z navbatida, kexsa avlod vakillari davlatimiz rahbarining ishonchini oqlash uchun turli sohalarida faol qatnashib, munosib hissa qo'shmoqda. Shuning uchun ham nuroniyarlarni el ardori, xalq e'tibori va davlat e'zozida yurgan insonlar, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

besh yo'nalish bo'yicha ko'rilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib tasdiqlandi. Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun viloyat budjetidan 10 milliard so'm ajratildi.

— Bu dastur aynan inson uchun qulay va munosib muhit yaratishga qaratilgani bilan e'tiborni tortadi, — deydi Quva tumani tibbiyot bo'limi boshlig'i Ravshanbek Isoqov. — Bugun tumandagi 21 ta tibbiyot muassasasida ta'mirlash, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda. Shuningdek, kutish joylaridagi o'rindiqlar ko'paytirilib, navbatni tartibga keltirish, ona-bola xonalarini tashkil qilish, nogironligi borlar erkin harakatlanishi uchun kirish-chiqish joylari, xona va yo'laklarda inklyuziv muhit yaratish, qo'l yuvish uchun issiq suvli, toza-ozoda umumiy foydalanish xonalari tashkil etish asosiy vazifalardan.

Tibbiyot muassasalaridagi lokal tarmoqlar, axborot-kommunikatsiya va kompyuter jihozlaridan samarali foydalangan holda davolash-profilaktika muassasalari raqamlashtirish, tibbiyot xodimlarining malakasi va mahorati oshirish, rag'batlantirish tartibini joriy etish ham bugun juda muhim.

— Shifokorlar nazoratidan o'tish, muolaja olish uchun markaziy poliklinikaga

murojaat qilib turaman, — deydi mehnat faxriysi Ollobergan Qo'chqorov. — Bu yerdan bemorlar, ona-bolalar, nuroniyar uchun yaratilgan sharoitni ko'rib, bahri dilim ochiladi. Avval ham davolanish uchun bu yerga kelganman. U paytdagi sharoit bilan bugungi imkoniyatlarni qiyoslab bo'lmaydi. Hamma jarayon raqamlashtirilgan. Kirish-chiqish yo'laklaridagi qulayliklar, kutish joylari shay holatda. Bu belgilangan vaqtda ortiqcha qinchiliksiz shifokor ko'rigiga kirish, muolaja olish imkoniyatini beryapti. Mana, qilsa bo'larkan-ku.

Xalqimiz “Kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan afzal” degan purhikmat naqlni bejiz aytmagan. Uning zamirida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, o'z vaqtda shifokor ko'rigidan o'tish bilan bog'liq hayotiy amallar mujassam. “Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar” dasturi tibbiyot muassasalariga madaniyat, tartib-intizom, fayz olib kirib, aholi kufiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti. Yangi imkoniyati, tashabbuslarga qanot bo'layotgani bilan e'tiborni tortadi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Mustaqillik taqdir emas, tanlovdir. Erkinlik berilmaydi, qo‘lga kiritiladi. Haqiqiy istiqlol faqat bayroq emas, bu xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash irodasi. Bu satrlarni bugun, davlatimiz mustaqilligining 34 yillik shonli bayrami arafasida yurakdan his qilib o‘qiymiz. Chunki O‘zbekiston mustaqilligi endigina orttirilgan ne‘mat emas, balki har bir yurtdoshimiz hayotida, qalbida, orzu-maqsdalarida, mehnati va fidoyiliga yashab kelayotgan buyuk qadriyatga aylangan. Mustaqillik bir avlodning jasorati bilan boshlangan, keyingi avlodlar fidoyiligi bilan davom etayotgan tarixiy safardir.



Sobir TURSUNOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Ayniqsa, istiqlolning keyingi sakkiz yili yangi O‘zbekistonning yangi nafasi, yangi ruhi va yangi yo‘nalishi bilan yodda qoldi. Prezidentimiz rahbarligida boshlangan islohotlar, avvalo, xalqqa xizmat qilish, inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ko‘rishga qaratildi. Haqiqatan, “Inson qadri uchun” g‘oyasi xalqchil siyosat markaziga aylandi. Bu shunchaki shior emas, bu — amaldagi islohotlar, real natijalar orqali o‘z isbotini topayotgan falsafa, davlat boshqaruvining yangi dunyoqarashi.

O‘zbekiston bugun nainki ichki taraqqiyot, balki mintaqaviy hamkorlik va xalqaro



hamjihatlikda ham faol rol o‘ynayotgan davlatga aylandi. Agar bundan o‘n yil avval O‘zbekiston tashqi siyosatda ehtiyotkor va tor doirada harakat qilgan bo‘lsa, bugun u mintaqadagi jarayonlar markazida turgan, tashabbus ko‘rsatayotgan, muhkamalarni boshlayotgan, global yechimlar taklif etayotgan davlatga aylandi.

Markaziy Osiyo — murakkab tarix, strategik makon, boy tabiat va o‘zaro chambarchas bog‘liq xalqlar mintaqasi. Shu hududda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, yaxshi qo‘shnichilik, ishonchli hamkorlik muhitini yaratish O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelmoqda. Prezidentimiz boshchiligidagi siyosiy rahbariyatning dastlabki tashabbuslari — mintaqada o‘zaro tortishuvlarni bartaraf etish, chegara masalalarini hal qilish, suv, energetika, transport va savdo aloqalarini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ilk qadamlar bugun o‘z samarasini bermoqda.

Bir paytlar o‘zaro ishonchsizlik sabab suhbatlasha olmagani qo‘shnilar endi bir stol atrofida o‘tirib, umumiy kelajakni muhkama qila boshladi. O‘tgan yillar mobaynida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari an‘anaga aylandi. Ushbu format doirasida shu paytgacha bo‘lib o‘tgan yuqori darajadagi sammitlar mintaqaviy integratsiyangani yangi bosqichga ko‘tarilganini namoyon etdi. Birgalikdagi loyihalar — gaz, elektr energiyasi, temir yo‘l va avtotransport yo‘llari, logistika markazlari va boshqa infratuzilma tizimlari haqiqiy iqtisodiy va siyosiy hamjihatlikni yaratib boshladi.

Birgina misol: O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida transkaspik transport yo‘nalishi orqali eksport-import hajmi 2023-yilda 30 foiz oshdi. Bu nafaqat iqtisodiy foyda, balki o‘zaro ishonch va siyosiy barqarorlik mevasidir.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — jahon hamjamiyatidagi o‘rnimiz. Bugun O‘zbekiston



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Shukuh

faqatgina mintaqada emas, balki global miqyosda ham e‘tirof etilayotgan davlatga aylanmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, yangilangan Konstitutsiya hamda davlat boshqaruvida inson huquqlari, shaffollik va ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha qabul qilingan qonunlar xalqaro maydonda katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Yaqin yillar ichida O‘zbekiston BMT, YXHT, Islom hamkorlik tashkiloti, SHHT, TDT kabi ko‘plab xalqaro tuzilmalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Ular bilan hamkorlikda tarixiy meros obyektlarini muhofaza qilish, ekologik muammolar, ayniqsa, Orol fojiasi bo‘yicha xalqaro loyihalar doirasida dunyoning e‘tiborini torta oldi.

2024-yilda tarixda birinchi marta O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 115 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu faqatgina raqam emas. Bu mehnat qilgan xalqning, tadbirkorlikka imkoniyat berilgan jamiyatning, investitsiya muhiti yaxshilangan mamlakatning natijasidir.

Milliy valyutamiz — so‘m barqarorlashdi. Inflyatsiya darajasi nazoratga olindi. Yagona soliq to‘lovi, fuqarolar uchun soliq imtiyozlari, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan zamonaviy infratuzilma, elektron ro‘yxatdan o‘tish va litsenziya olish jarayonlarining soddalashuvi — bularning barchasi faqatgina iqtisodiyotni emas, xalqimizni ozod, erkin, farovon hayotga yetaklamog‘da.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun O‘zbekiston dunyoga “men borman!” deb aytaypti. Bu da’vo emas — bu natija. Bu maqsad emas — bu olingan yo‘l. Eng muhimi, bu yangi O‘zbekistonning erangi kuniga ishonch bilan boqish, o‘z taqdiriga egalik qilishga tayyor jamiyatning yuksak ongidir.

Shuning uchun O‘zbekiston davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga alohida ruh, mazmun va mas‘uliyat bilan qarayapmiz. Bunga hamohang tarzda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, ushbu bayram “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan g‘oya atrofida o‘tkazilyapti. Bu so‘zlar tasodifiy emas. Ular millatning tarixi, xalqning orzu-umidlari va Vatanga sadoqatini o‘z ichiga olgan ifodadir.

Har yili o‘tkazilayotgan istiqlol tantanasi faqat tarixga nazar tashlash uchun emas, balki kelajakka yuzlanish uchun ham imkoniyat bermoqda. Bugun O‘zbekiston o‘z yo‘lini tanlagan, o‘z so‘ziga ega, o‘z xalqiga suyangan

va dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotgan davlatga aylandi. Bu yo‘lda har bir fuqaroning hisssasi bor. Har bir ustoz, fermer, shifokor, muhandis, yozuvchi, askar, talaba va san‘atkorning mehnati bor.

Shu bois, mustaqillik faqat davlat ramzlari, bayram tadbirlari va tarixiy sana emas, u har bir insonning kundalik hayoti, mehnati, orzusi va mas‘uliyatida o‘z ifodasini topayotgan tirik g‘oyadir. Mustaqillik Vatan uchun mas‘uliyat, millat uchun sadoqat, xalq uchun fidoyilik demakdir. Yangi O‘zbekistonda islohotlar, qabul qilinayotgan har bir farmon va qaror zamirida ham aynan ana shu g‘oya mujassam. Mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yillik bayramini o‘tkazishga doir qaror ham ayni shunday mazmun va ruhda.

Istiqlol shunchaki oddiy bayram emas. Bu — milliy o‘zligimiz, ezgu orzularimiz, kelajak sari intilishimizni keng namoyon qilish imkoni. Chunki bugungi yangi O‘zbekiston, avvalambor, o‘z tayanchini xalqida, kuchini birdamligida, yuzi nurli yoshlarida, oilasi qadriyatlarida, mehnatkash fuqarolari fidoyiligida ko‘rmog‘da.

Bugungi kunda shaharmi, qishloqmi — mamlakatimizning har bir go‘shasida o‘zgarish, yangilanish, yaratish jarayoni kechmoqda. Yangi Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O‘zbekiston — ijtimoiy davlat. Bu endi davlat odamdan emas, odam davlatdan umid qilish, yordam olish, qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini his qilmoqda deganidir.

Buni hayotiy misollarda ham ko‘ryapmiz. Yaqin yillarda yurtimizda 500 mingdan ortiq yangi ish o‘mi yaratildi. Kambag‘allikni qisqartirish dasturlari tufayli millionlab oilalar hayotida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhimi, insonlarga ishonch, o‘z hayoti uchun javobgarlik tuyg‘usi qayta tiklanmoqda.

Mana shunday farabaxsh, ulkan imkoniyatlarga to‘la davrda yashayapmiz. Bugungi muvaffaqiyatlarning asosida yurtimiz tinchligi, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, bag‘rikenglik muhiti yotadi. O‘tmishni qadrlab, kelajakni ko‘zlayotgan, dunyo bilan tengmang muloqot qilayotgan, o‘z yo‘lini tanlagan va undan chekinmas mamlakat bu, albatta, yangi O‘zbekiston!

Qolaversa, bugungi zamonaviy dunyoda obro‘-e‘tibor shunchaki erishib bo‘ladigan narsa emas. U ishonch, amaliy ishlar natijasi orqali orttiriladi. Mana shunday ishonchli, ochiq, dunyoviy davlatga aylanish xalq bilan muloqotga asoslangan siyosiy madaniyat, eng muhimi, xalq ishonchi tufayli yuzaga chiqdi.

Tashqi siyosatdagi yuksak maqomimiz, mintaqaviy yetakchilik, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik — bularning barchasi shunchaki diplomatik muvaffaqiyatlar emas, balki davlatimizning katta sahnada munosib o‘rin egallayotganidan dalolat beradi.

Bu yilgi mustaqillik bayrami ana shu o‘zgarishlar, fidoyiliklar va buyuk maqsadlar tantanasi bo‘ladi. Ushbu bayram nafaqat ramziy tantana, balki ijtimoiy va ma‘naviy uyg‘onish, xalqning Vatanga sadoqati, kelajakka ishonchi namoyonidir. Chunki bu bizning Vatanimiz. Bu millat — biz yuragida yashaydigan millat. Bu xalq — bizning ona xalqimiz. Bu istiqlol — bizning abadiy yo‘ldoshimiz.

foydasini yosh avlodga ham bildirish, anglatish bo‘lishi kerak.

— Internet ham, telefon yoki kinoseriallar ham kitob o‘qishning zavq-shavqini berolmaydi, — deydi O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov. — Chunki kitob o‘qish jarayonida insonning qalbi va ongi ta’sirlanib, dunyoqarashi boyib, tafakkuri kengayadi. Biroq shunchaki o‘qish emas, balki maqsadli va tanlangan kitoblarni o‘qish muhim. Aks holda, vaqtni behuda ketkazish yoki noto‘g‘ri g‘oyalarga moyil bo‘lish xavfi ham mavjud. Dunyoda kitob o‘qishdan boshqa huzurbaxsh mashg‘ulot yo‘q va buni baralla aytish lozim.

Shoir yozadi:

**Qul bo‘lma quyoshga — kuyib ketasan,
Qul bo‘lma ko‘z yoshga — toyib ketasan.
Sajda qil, mayliga, kezi kelganda
Kitobga Qul bo‘lsang, boyib ketasan!**

Ha, buyuk olimlar kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyot bilan oshno qalbgacha hech qachon yomonlik in qurmasligini, doimo yaxshilik, egulik hamroh bo‘lishini ta’kidlaydi. Kitob o‘tmishni bugun va kelajak bilan bog‘laydigan o‘ziga xos ko‘priki. Shu bois, kitobning ma‘naviy meros, tuganmas xazina deyilishi ham bejiz emas. Haqiqiy kitobni qadrlaydigan insonlarga uning qiymatini anglab yetgan. Zero, dunyoga teran ko‘z, uyg‘oq qalb bilan boqish, avvalo, kitoblar orqali kechadi.

Ochig‘i, ushbu mulohazalarga amerikalik yozuvchi, biznes-murabbiy, yirik tadbirkor va infobiznes sohasidagi ilk mutaxassislardan biri Den Kennedi irod qilgan nutqlardan biridagi quyidagi iqtibos turki berdi: “Kichkina televizori va katta kutubxonasi bor kishilar — boy, katta televizori va kichik kutubxonasi borlar esa qashshoqlardir”.

Bu fikrga siz nima deysiz? Biz qaysi toifaga kiramiz?

**Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Mulohaza

DUNYOGA TERAN KO‘Z, UYG‘OQ QALB BILAN BOQISH
kitoblar orqali kechadi

Hozir tevarakka boqib, kishida bir savol uyg‘onadi: zamona zayli bilan yaratilgan sharoit, berilgan imkoniyat va yengilliklarni suiiste‘mol qilishga moyil bo‘lib bormayapmizmi? Uydagi javonga sig‘may qolgani uchun tunov kuni 200 ga yaqin katta-kichik, qalin-yupqa kitobni bog‘lam-bog‘lam qilib, o‘g‘limning xonadoniga ko‘chirish uchun mashinaga yukladim. Ko‘p qavatli uylarda bunday ishlar, albatta, qo‘shnilar nigohi ostida ro‘y beradi. Katta qutilarga solingan va chiroyli tasmlar bilan bog‘langan kitoblar taxamlari ko‘rib, uzoq yillik qo‘shnimiz Mastura opa yonimga keldi.



— Voy-vuy, mana bu kitoblarning ko‘pligini! Nega bulaming orasida chiroyli muqovalisi kam. Hammasi ko‘rimsiz, rangsiz?

Savol nazari bilan qarab turganimni ko‘rib, qo‘shni ayol davom etdi:

— Akangiz bilan faqat chiroyli kitoblarni “stenka”ga taxlab qo‘yganimiz, uyga ko‘rk berib, ko‘zni quvnatib turadi axir. Sizdagi kitoblardan nima naf deymdan-da...

— Mastura opa, bu kitoblarni oilamiz bilan o‘qiymiz, o‘qiyapmiz. Kitob uyni yasatish uchun emas, qalbgacha, tafakkurga jilo berish uchun sotib olinadi.

Opa menga g‘alati qarab, nari ketdi.

Sinfodosh do‘stlarim bilan avvallari tez-tez uchrashar, vaqt-bevaqt bir-birimizning xonadonimiz ostonasidan hatlab turardik. Hozir “neytral” hudud — choyxonada oyda bir bazo‘r diydorlashamiz. Boshqa payt teleqramdagi guruhimizda gaplashamiz, tasviri va ovozi xabarlar almashamiz, tavallud kun va boshqa bayramlarda tabrik yo‘llaymiz. Faqat do‘stimiz Mirodil telegramdagi guruhimizda yo‘q. Lekin onda-sonda har birimizning uyimizga, ish joyimizga kelib, yo‘qlab turadi. Sababi u mobil telefon ishlatmaydi. Aniqrug‘i, ishlatadigan telefoni oddiy — faqat zarur hollarda gaplashish

uchun. O‘zi ancha yildan buyon universitetda talabalarga dars beradi.

— Bu zamonaviy telefonlar vaqtning ham, sog‘liqning ham o‘g‘risi. Esiz vaqt, esiz umr. Avvallari talabalar darsda tetik, dadil ishtirok etardi. Hozir yarim auditoriya uyqusirab o‘tiradi, qulog‘iga gap kirmaydi, zehni mudroq, — deydi ba‘zan jig‘ibiyron bo‘lib.

Mirodilning aytishicha, buning sababini izlay-izlay topibdi.

— Aksariyat yoshlar tuni bilan ijtimoiy tarmoqlarda o‘tiradi, bir-biri bilan soatlab bekorchi mavzularda gaplashadi. Bo‘lmag‘ur, ongni buzadigan ma‘lumotlarni ko‘radi,

boshqalarga ulashadi. Tuni bilan mijja qoqmay, kunduzi darsda mudrab o‘tiradi. Ko‘z ochiq bo‘lsa ham uxlayotgan miya bilan ma‘ruza tinglaydi. Sarflagan vaqti, quvvati, bedorligi shunga arzirmikan? Shuning uchun ham men eng oddiy telefon ishlataman. Televizorda faqat yangiliklar dasturini ko‘raman.

Tadqiqotchilar televizor ko‘rib yoki telefon o‘ynab tili chiqqan bola bilan onasi yoki buvisi kitobdan o‘qib beradigan ertaklarni tinglab tili chiqqan bolaning so‘z boyligida katta farq borligini allaqachon isbotlagan. Ularining fikriga qo‘shilish, tafakkuri va tahlili ham ancha yuqori pog‘onada bo‘ladi.

Hayotimizda keng tarqalgan ikki muhim axborot va madaniyat manbai bor — kitob va televizor. Har ikkisinin inson ma‘naviyati, bilimi va dunyoqarashiga ta’siri benihoya katta. Natija esa ulardan qanday foydalanishga bog‘liq. Kitob bilim bunyodkori bo‘lsa, televizor axborot ko‘zgusidir. Me‘yorida va maqsadli foydalanish inson kamoloti uchun juda muhim.

Ulardan har birining foydali va zararli jihatlari mavjud. Kitob — bilim manbai, insonga bilim, tajriba va aql beradi. Uni o‘qish orqali inson mustaqil fikr yuritishni o‘rganadi. Tasavvuri kuchayib, xayolot olami rivojlanadi. Nutqni boyitadi — so‘z boyligi, ifoda qilish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
34930 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.